



SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS ON THE TOURISM PHENOMENON AND THEIR THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS

Bakhrom Orzikulov
Doctor of Philosophy (PhD) Scientific researcher
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Tourism, people, people, Uzbekistan, social and spiritual.

Received: 26.09.24

Accepted: 28.09.24

Published: 30.09.24

Abstract: The article describes the nature of the tourism phenomenon, the categories of socio-spiritual and cultural impact, the socio-spiritual popularity of the tourism sector and the need to use its wide opportunities, the fact that it is a tool that unites people and nations and its social significance. The development of pilgrimage tourism in Uzbekistan, its types and issues of state attention are also briefly described.

TURIZM FENOMENIGA OID ILMIY-NAZARIY QARASHLAR VA ULARNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Baxrom Orziqulov
Falsafa fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD), Tadqiqotchi
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turizm, inson, xalq, O'zbekiston, ijtimoiy-ma'naviy.

Annotatsiya: Maqolada turizm fenomenining mohiyati, ijtimoiy-ma'naviy hamda madaniy ta'sir kategoriyalari, turizm sohasining ijtimoiy-ma'naviy ommabopligi va uning keng imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi, insonlar va xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita ekanligi va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Unda O'zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishi, turlari hamda unga e'tibor masalalari ham qisqacha bayon qilingan.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ О ФЕНОМЕНАХ ТУРИЗМА И ИХ
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ****Бахром Орзикулов****Доктор философии (PhD) научный исследователь****Национального университета Узбекистана****Ташкент, Узбекистан****О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** Туризм, люди, люди, Узбекистан, социальное и духовное.**Аннотация:** В статье описывается природа феномена туризма, категории социально-духовного и культурного воздействия, социально-духовная популярность туристической сферы и необходимость использования ее широких возможностей, то, что это инструмент, объединяющий людей и народов и его социальное значение. Также кратко описано развитие паломнического туризма в Узбекистане, его виды и вопросы внимания государством.**KIRISH**

Bugun jadal kechayotgan fan va texnologiyalar asrida turizm sohasi chuqur ijobiy tendensiyalar va o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Turizm sohasining ijtimoiy-ma'naviy ommabopligi va uning keng imkoniyatlaridan foydalanish dunyo mamlakatlari va mintaqalarga o'z ta'sirini o'tkazib, o'z mijozlariga yanada qulay sayohat sharoitlarini taklif qilish imkonini beruvchi bir qator yangiliklarni olib keldi. Taqdim etilayotgan turizm fenomenining ijtimoiy-ma'naviy hamda madaniy ta'sir kategoriyalari masalasi doirasida dunyoda turizmni global ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tasniflash ham allaqachon boshlangan. Bu esa bugungi globalashuv davrida turizmning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillarni tahlil qilish, dunyoda va O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, turlari va mahalliy xususiyatlarini aniqlashtirish imkonini beradi.

Turizmning jamiyat ijtimoiy-madaniy hamda ma'naviy kategoriya sifatidagi o'rni va insoniyat hayotiga ta'siri uzoq yillardan buyon ayon. Ayniqsa uning insonlar va xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita ekanligi va ijtimoiy ahamiyati so'nggi paytlarda sezilarli darajada oshdi. Shu boisdan turizmning nazariy jihatlarini tadqiq etish asosida uning rivojlanishini anglash va undan foydalanish kun sayin ortib bormoqda va mijozlar ehtiyojini qondirish nuqtai nazaridan davlatlar iqtisodiyotiga katta foyda keltirmoqda.

ASOSIY QISM

Mazkur maqolada biz turizm nazariyasi, uning imkoniyatlaridan foydalanish metodologiyasi va ilmiy-nazariy xususiyatlariga va undan foydalanishning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratamiz. Turizm sektori orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, muhim

ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, tovar va xizmatlarni taqsimlash, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida inqirozli vaziyatlarni hal qilish, ixtisoslashtirilgan platformalarni yaratish, sohani qulay boshqarish hamda uning iqtisodiy asoslarini anglash imkoniyatini beradi.

Shu o'rinda avvalambor turizm tushunchasi va kategoriyasiga to'xtalish o'rinli. Insoniyat tarixida "Turizm" atamasidan keng muomalada foydalanishga taxminan 1800-yilda Fransiyada nashr etilgan fransuzcha lug'atda, turistga qiziquvchanlik yoki "vaqtni o'ldirish" maqsadida sayohat qiluvchi degan ta'rif berilgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "turizm" so'zi lotincha "tornus" (aylana bo'ylab harakatlanish, aylanish) tushunchasidan olingan. Tushuncha fransuz tilida "tur" piyoda yurish, sayohat deb tarjima qilinadi, bu zamonaviy talqinga eng yaqin. "Turizm" so'zining etimologiyasiga ko'ra "Turizm" tushunchasining aniq etimologik ildizlariga qaramay, turizm hodisasining ijtimoiy dinamikasi dastlab rivojlangan sanoat jamiyati sharoitida, keyin esa globallashtirish davrida uning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan ko'p qirraliligini oldindan belgilab berdi. Zamonaviy turizmning jamiyat sohalariga beqiyos ta'siri kuchaya boshladi.

Etimologik va terminologik jihatdan olib qaralganda, yuqorida qayd etilganidek, "turizm" tushunchasi ijtimoiy hayotning muhim fenomeni sifatida va ijtimoiy hodisasi faqat 20-asrning ikkinchi yarmida ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Soha industrial jamiyatdan axborot jamiyatiga o'tish sharoitida yanada rivojlandi.

Turizm — bu shaxsning biror bir mamlakat yoki hududda vaqtincha bo'lishi, o'sha mamlakat yoki joydagi mavjud manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lmagan holda biror bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan, yashash joyidan o'sha ko'zlangan manzil yoki hududga sayohat qilishi tushuniladi.

Turist — bu shaxsning biron bir mamlakat yoki hududda vaqtincha bo'lishi, o'sha mamlakatdagi (hududdagi) turistik manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lmagan holda faoliyat bilan shug'ullanmasdan yashashi, vaqtincha bo'lishi, o'sha hududga 24 soatdan to 12 oygacha bo'lgan davrgacha bo'lgan davrda borishi, qo'nim topishi yoki vaqtincha bo'lishi yoki kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxsdir.

Sayohat — o'z mazmun mohiyatiga ko'ra turizmdan birmuncha farqlanadi. Sayohat va turizmning bir-biridan farqlarini ko'rib chiqishda ushbu faoliyatning maqsadlari va moddiy ta'minotiga to'xtalib o'tish joiz. Sayohat va ekspeditsiyalarning asosiy qismi ma'lum bir maqsadlarga (savdo, fan, yangi yerlarni ochish, mahsulot reklamasi va hokazo) xizmat qilib, manfaatdor shaxslar, tashkilotlar, davlat va xususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtiriladi.

Sayohatchi — bu birinchi navbatda kasb bo‘lib, odamlarning kasbi yoki kun ko‘rish manbai yoki bo‘lmasa sayohatda ishtirok etuvchilarning turmush tarziga aylanishi mumkin. Bu esa faoliyatning maqsadi bo‘lib, turizm maqsadlaridan farq qiladi.

Gid (gid-tarjimon) — bu turist, sayyoh yoki ziyoratchiga turli axborotlar bilan bog‘liq tashkiliy xizmatlar ko‘rsatish, turistlar va sayyohlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (hududidagi) turistik axborotlar, ma‘lumotlar (resurslar) bilan tanishtirish uchun o‘z kasbiga ega maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsdir.

Agar manbalarga e‘tibor qaratsa, dunyo olimlari mazkur tushuncha va uning etimologik hamda terminologik xususiyatlariga turlicha talqinlar asosida yondashganlar. Turizm muammolari ayniqsa XX asr so‘nggi o‘n yilliklari va XXI asr birinchi choragida G‘arb tadqiqotchilarining ishlarida yetarlicha batafsil talqin qilingan. U ma‘lum darajadagi ijtimoiy termin va kategoriya sifatida konvensiyaga ega bo‘lgan soha bo‘lganligi bois, turizm fenomeni va unga bog‘liq bo‘lgan hodisalarni o‘rganishga fanlarning turli yo‘nalishlari doirasida, turli sohalar va rakurslarda qarashimiz zarur bo‘ladi. (Bular ijtimoiy, falsafiy, psixologik, madaniy-antropologik, kabi yondashuvlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin). Ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida keltirilgan talqinlar orasida g‘arb sotsiologiya fanining yirik vakillari S.Koen, D.Mak Kennel, D.Xarrison, D.Borstin, D.Uri, S.Rojek, U.Xanners, J.Frouning ko‘plab maeriallari, ilmiy maqolalari va individual ilmiy tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi va ular muhim nazariy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

C.Mills, X.Ortega y Gasset, G.Markuse, P.Sorokin, D.Bell, Z.Bauman, E.Giddenslarning sayohat va turizm fenomeni bilan bog‘liq jarayonlarning falsafiy tahlilini o‘z ichiga olgan sotsiologik tushunchalari o‘rin olgan. Yuqoridagi sotsiologlarning asarlarida turizm hodisasining ijtimoiy-madaniy makonga mintaqaviy, milliy va global miqyosdagi ta‘sirining turli talqinlari mavjud.

Rossiya sotsiologiya va madaniy-antropologiya fanida so‘nggi yillarda turizmning ijtimoiy voqelikning turli darajalariga ta‘sirining dinamik o‘sishi turizm fenomenining turli jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar va nashrlar muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar M.Marinin, M.Birjakov, V.Gulyaev, V.Dvornichenko, V.Kvartalnov, G.Papiryan, A.Chudnovskiy va boshqalar ilmiy faoliyatida shubhasiz ilmiy-amaliy ahamiyatga ega molik bo‘lib, mualliflarning bir qator ilmiy nashrlari, vaqtli matbuot nashrlarida, darslik va qo‘llanmalarida o‘z ifodasini topdi.

Chunki o‘sha kezlardagi dastlabki texnika taraqqiyoti, ayniqsa temir yo‘lining kashf qilinishi va dastlabki qatnovning amalga oshirilishi butun Yevropada ommaviy ravishda turizmning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Birinchi temir yo‘l liniyasi 1830 yilda Manchester va Liverpool shaharlari o‘rtasida ishga tushirilib, u amalda sayohat uyushtirishning vaqt chegaralarini

o'zgartirib yubordi. Ungacha uzoq davom etgan sayohatlarni endilikda qisqa muddatlarda amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada odamlar uzoq o'lkalarga bemaol sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar, qisqa qilib aytganda sayohat turizmi uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi, etnoslararo madaniy aloqalar tufayli madaniy turizm turi shakllandi.

Sayohat turizmi tarixining retrospektivida madaniyatlararo muloqotning eng muhim usuli sifatida I.I.Sandomirskiyning asarlarida alohida e'tiborga molik. Bu borada L.P.Voronkova, M.Belkin, V.Shestakov, G.Usyskina, G.Shapoval va boshqalarning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. Yoshlar submadaniyati tadqiqotchisi T.Shchepanskayaning asarlarida turizm dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish bilan bir qatorda, ramziylik va marosimlar bilan chegaradosh bo'lgan yoshlar submadaniyatining globallashuv makonida iste'moli strategiyasi sifatida talqin etiladi.

O'rganilayotgan mavzu turli darajadagi antropogen makonlarga bag'ishlangan asarlarga murojaat qilishni o'z ichiga oladi. Sayohatni ko'p darajali makon kontekstida dinamik ko'p funksiyali jarayon sifatida tahlil qilish madaniyatshunos olim V.Kaganskiy va Flier A.Yaning madaniyat ixlosmandlari uchun madaniyatshunoslikka oid bir qator asarlarida keltirilgan.

Mahalliy olimlardan A.Mirzayev, M.Aliyevalarning ta'rifiga ko'ra turizm tushunchasi, bu – fransuzcha “tour” so'zidan olingan bo'lib, sayr-sayohat ma'nosini anglatadi. Demak, “tur” deganda, turist uchun ma'lum marshrutda, ma'lum turistik obyektga, ma'lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa) to'plami tushuniladi.

O'zbekistonning turistik jozibadorligi oshishiga xizmat qiluvchi dolzarb axborot resurslarini, jumladan O'zbekistonning noyob tarixi, o'tgan buyuk allomalari va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an'analari haqida hujjatli filmlar va teleko'rsatuvlar yaratish va tarqatish zarur. Demak, nazariy jihatdan olib qaralganda, mamlakatning yoki istalgan hududning turistik imijini quyidagi bosqichlar orqali shakllantirish imkoniyati mavjud. Buning uchun PR nazariyasidan mustahkam o'rin olgan amerikalik tadqiqotchi G.Lasvellga tegishli kommunikatsiya modelidan foydalanish mumkin, deydi B.Alimov. Ular quyidagilardir:

- 1) turizm orqali chet el jamoatchiligi mamlakatdan nima kutayotganligini aniqlash;
- 2) hududning turizm sohasidagi o'ziga xoslik va ustunlik jihatlarini yuzaga olib chiqish;
- 3) xorijliklar istagan hudud obrazi bilan mavjud real imijni solishtirish;
- 4) chet el jamoatchiligi bilan mamlakat o'rtasidagi ustuvor kommunikatsiya kanallarini belgilab olish.

Turizm xususida so'z yuritilganda, uning aralash turlari xususida qator mahalliy olim va mutaxassislar va tadqiqotchilar ishlarini ham alohida keltirib o'tish joiz. Ular qatorida To'rayev B.X., Safarov B.SH, Mo'minova N.G, Xoshimov M, Tuxliyev I., Abdullayeva T, Xolmatjonov

B.M, Mirzayev A, M. Alieva larning tadqiqotlarida tushunchaga nazariy talqinlar asosida ta'riflar keltirib o'tilgan bo'lib, ular masalaga turli rakurslarda yondashadilar. Ayniqsa bunda turizm asoslari, mohiyati, xalqaro e'tirofi, madaniy, sarguzasht, rekreatsion, ziyorat, sport, ekologik, gastronomik turizm turlari qayd etilganligi alohida ahamiyatga molikdir.

Shu o'rinda ular tadqiqotlarida va materiallarida yangicha noan'anaviy yondashuvlar ham alohida ajralib turadi, ayniqsa turizmni rivojlanishining nazariy va metodologik asoslari, hamda unga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan.

Turizm turlari va ular klassifikatsiyasi xususidagi yondashuvlarda bir uning qancha yo'nalishlari keltirib o'tiladi.

Ijtimoiy madaniy turizm – bu davlat yoki yakka shaxslar tomonidan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni qondirish, ushbu ehtiyojlarga ajratiladigan mablag'lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Sotsial turizmni maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo'lgan kishilarni dam olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo'llab quvvatlash hisoblansa, madaniy turizm esa madaniy hordiq chiqarish uchun amalga oshiriladi. Turizmining ijtimoiy turi chet ellarda keng tarqalgan. Sobiq Ittifoq davrida turizmni ijtimoiy turi ham ommabop hisoblangan, uning ulushiga ichki turizmning qariyb 80 foizi i va xalqaro turizmning 50 foizi to'g'ri kelar edi. Madaniy turizmning shakllanish tarixi uzoq bo'lib, u barcha davrlarda insonlarning dam olishlari va madaniy hordiq chiqarishlari uchun asos bo'lgan, chunki inson turizmning ushbu turiga doimo ehtiyoj sezadi. Ijtimoiy turizmni moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga davlatning kattagina mablag'lari yo'naltirildi. Davlat tomonidan ajratilgan bevosita investitsiyalardan tashqari davlat sug'urtasi va kasaba uyushmalarining imtiyozli yo'llanmalari taqdim etilgan.

Madaniy turizm. U o'z navbatida bir qancha turlarga bo'linadi:

- a) diniy ziyoratgoh turizmi.
- b) madaniy-tarixiy turizm.

Shuningdek, ekoturizm, mavzuli turizm, iqlimni o'rganish, hayvonot olamini o'rganish, o'simlik dunyosini o'rganish, paleontologiyani o'rganish va boshqa ko'rinishlari mavjud.

Rekreatsion turizm – dam olish maqsadidagi turizm bo'lib, qator davlatlar uchun turizmning ommaviy shakli bo'lib hisoblanadi. Ispaniyaga, Italiyaga, Fransiyaga, Avstriyaga chet el turistlarini tashrifi avvalo mana shu maqsadni ko'zda tutadi. Rekreatsion turizm sayohatni davomiyligi bilan, marshrutga kiruvchi shaharlarni soni ko'p bo'lmaganligi, havo transportidan keng foydalangan holda, avvalo charter havo reyslari bilan ajralib turadi. Dam olish maqsadida safarlar turli xilma-xilligi bilan farqlanadi va qiziqarli tomosha dasturlarini (teatr, kino, festival va h.k) qiziqishlar bo'yicha mashg'ulotlar (ov, baliq ovlash, musiqali, badiiy ijodiyot va h.k) tashrif

buyurgan mamlakatni milliy madaniyatini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan etnik sayohatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Sport turizmi – uning asosiy maqsadi turistlarga o'zlari tanlagan sport turi bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratib berishdan iborat. Sport turizmi zaruriy baza mavjudligini talab etadi: turli inventarlarni, maxsus trassalarni, arqon yo'llar, sport maydonchalarini, asbob-uskunalarini talab etadi. Sport sayohatlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu dam oluvchilarni xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Sport sayohatlari, safarlarning maqsadiga bog'liq ravishda 2 turga bo'linadi: aktiv va passiv. Birinchi holatda bu qandaydir sport turi bilan shug'ullanish hisoblansa, ikkinchi holatda shunchaki ishtirok etish hisoblanadi.

Ekoturizm — atrof muhitni saqlashda iqtisodiy rag'batlantirish uchun sharoit yaratadi. «Ekoturizm» tushunchasi sayohatlarni juda keng qirralarini qamrab oladi, ya'ni, o'quvchilar uchun uncha katta bo'lmagan tanishuv turlaridan tortib, to milliy parklar va qo'riqxonalariga uzluksiz turistlik sayohatlarni qamrab oladi. Turizmni mazkur turidan olinadigan foyda qisman tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga yo'naltiriladi.

Shu o'rinda R.Hayitboyev va R.Amriddinoyalarning qayd etishicha, Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) - turizmning quyidagi noan'anaviy turlarini alohida ajratib ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

Sarguzasht turizmi — bu turda asosan tog' cho'qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayohat qilish va «yerning oxiri» ga borish kabilar rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu turni tog' so'qmoqlari, cho'llar bo'ylab va Orol dengizi havzasiga sayohat marshrutlari bo'yicha rivojlantirish mumkin.

Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayohat turizmi — u mahalliy va xalqaro miqyosda tashkil qilinib, dengizlar, daryolar, ko'llar, suv omborlari, suv havzalari bo'ylab tashkil qilinadi. O'zbekiston ham bu borada yetarli imkoniyatlarga ega bo'lib, ushbu yo'nalishni rivojlantirish Chorvoq suv ombori, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Toshkent dengizi kabi suv manbalarida tashkil qilinishi mumkin.

Turizm tushunchasi va ziyorat turizmining mohiyati xususida fikr yuritganda, O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonunida turizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: – «turizm-jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qiladigan joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda, uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) dir, deyilgan. Turizmning asosiy subyekti – bu turistdir. Turist mamlakat hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxsdir. Turistik faoliyat esa ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyatdir.

Ziyorat turizmi — O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida keltirilishicha, muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish ziyoratdir, deb ta’riflangan. Ammo islom dini qoidasiga ko‘ra, aziz-avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borganda ularning ruhlaridan madad so‘rashlik, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar nojoizdir. Chunki bu kabi amallarni ro‘yobga chiqarish faqat Allohning ixtiyoridadir. Ziyorat qilinuvchilar payg‘ambar yoki tariqat shayximi, ulardan najot so‘rash o‘rniga haqlariga duoyi xayr qilish, sadaqa ehson savoblarini ularning ruhlariga hadya etishlari o‘rinlidir. Islomda shaxsga sig‘inish shirk sanaladi. Muhammad (S.A.V.) o‘zlarining bir hadisi shariflarida aytganlar: «Qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero u oxiratni eslatadi». Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi, deyiladi.

Yana bir manbada keltirilishicha, ziyorat aslida arabcha so‘z bo‘lib, islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va qadamjolarga borib sig‘inish demakdir. U islom bilan qo‘shilgach, diniy tus olgan. Ziyoratgoh – (arab+f.t) – sig‘inadigan, ziyorat qilinadigan joy.

1) Ziyorat qilinadigan muqaddas joy, tabbaruk qadamjo (aziz-avliyolar maqbarasi yoki ular yashagan, qadami tekkan joy).

2) Kishilar ko‘p boradigan yig‘iladigan mo‘tabar joy.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida yozilishicha, ziyoratchi, bu – muqaddas joylarga ziyoratga borgan yoki boruvchi kishi tushunilib, ziyoratdan qaytganlar o‘sha joylardan esdalik sovg‘alar keltirganlar.

Dastlab islom Makka ziyoratidan tashqari boshqa ziyoratlarni tan olmagan. Lekin keyinchalik mahalliy urf-odatlarini saqlagan holda Makka ziyorati elementlarini nusxalashtirgan mahalliy qadamjolar ziyorati rivojlanib ketdi. Ko‘rinib turibdiki, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarning o‘zbek milliy ma’naviyatida alohida qadriyatlar tizimiga aylanishi, o‘zbek xalqining islom dinidan avvalgi tarixiy davriga borib taqaladi. Ziyorat, ayni paytda, o‘z asl ma’nosida qo‘llanilib, biror mamlakat, shahar, ovul, qishloqqa safar, mehmon bo‘lib yo biror sabab bilan borib kelishga ham aytiladi.

B.Eraliev, I.Ostonaqulov, N.Abdulaxatovlar ziyorat turizmi va ziyoratgohlarga oid qarashlar asosida muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni asosan uch turga bo‘ladilar. Bular quyidagilar:

- 1) Xalqaro ahamiyatga molik ziyoratgohlar;
- 2) Respublika ahamiyatiga molik ziyoratgohlar;
- 3) Mahalliy ahamiyatga molik ziyoratgohlar.

Har uch turga mansub ziyoratgohlar ham muqaddas ziyoratgohlardagi avliyolar kultiga e’tiqod qilish odamlarni harom-xarish yo‘llardan uzoq yurishga insofli-diyonatli bo‘lishga, o‘zidan faqat yaxshilik qoldirish singari xayrli ishlarga undab kelgan. Ularda tarbiya, odob axloq,

o‘zaro do‘stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarining haq-huquqlari, mehr oqibat, halollik, adolat singari insoniy qadriyatlarni ulug‘lashga undab kelgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda turizm fenomenining mohiyati, ijtimoiy-ma‘naviy hamda madaniy ta‘sir kategoriyalari xususida turlicha talqinlar mavjudligiga, unga oid qarashlar dastlab Yevropada shakllangan bo‘lsada, keyinchalik dunyoning boshqa olimlari tomonidan ham bu xususda nazariy qarashlar shakllanganligiga guvoh bo‘ldik. Muhimi turizm sohasining ijtimoiy-ma‘naviy ommabopligi va uning keng imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi, insonlar va xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita ekanligi va ijtimoiy ahamiyati muhim ekanligiga, turizm turlarining turli xususiyatlari doimo muhim ahamiyat kasb etganligiga, shu bilan birga O‘zbekistonda. Unda O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishi, turlari hamda unga e‘tibor masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganiga guvoh bo‘ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гализдра А. Феномен туризма: социально-философский анализ. диссертация кандидата философских наук: 09.00.11.- Саратов, 2006.- 136 с.
2. <https://advice.uz/uz/document/2342>
3. Тухлиев И. Туризм асослари. Саёҳатларни моддий таъминлаш жиҳатлари. Самарқанд. 2008.
4. Маринин М М. Руристскне формальности и безопасность в туризме.- М.: Финансы и статистика. 2002,- 144 с; Биржаков М. Б Введение в туризм. — СПб: Герда, 1999. — 192 с; Биржаков М.Б., Казаков П П Безопасность в туризме- СПб.: Герда, 2005. -208 с
5. Гуляев В. Г Организация туристской деятельности / Моск. Акад.экономики и права. М.: Нолидж, 1996-312 с
6. Мирзаев М. Алиева М. Туризм асослари.-Т., 2011. -Б. 63
7. Ҳайитбоев Р, Амриддинова Р. Туризмнинг махсус турлари. (Услубий кўлланма). -Самарқанд.2008. -Б 12.
8. Алимов Б.Туризм соҳаси мамлакат имижининг муҳим таркиби сифатида. <https://beruniyalimov.uz/archives/40>.
9. Тураев Б.Х. Теоретико-методологические основы развития туризма. -Т.: изд. «Фан», 2008. — 166 с. 38
10. Сафаров Б.Ш. Совершенствование методологическо-методических основ инновационного развития национального рынка туристических услуг. Докторская диссертация. СамИСИ, 2015. — 254 с.
11. Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонуни. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. -Т.. 1999. № 9.

12. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т., 2006. — Б 95.
13. Усмонов М.А. Ислом. Справочник. Т. Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси.1986 й. — Б 85.
14. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Мадвалиев таҳрири остида. - Т.: ЎзМЭ. 2008.- Б.148.
15. Эралиев Б. ва бош. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Андижон ва Наманган вилоятлари). Т.: “Турон замин зиё”. 2014.